



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

17 oktabr yil.

05-11/24875-son

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi,
viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni
saqlash boshqarmalari
Respublika ixtisoslashtirilgan
pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot
markazi

TOPSHIRIQ XATI

Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining 2025-yil 7-oktabrdagi 1093-sonli xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-sentabrdagi PQ-4440-sonli hamda 2023-yil 8-sentabrdagi PQ-296-sonli qarorlari ijrosi doirasida Belorusiyaning Grodninks tibbiyot universiteti professorlari ishtirokida Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi bilan birgalikda joriy yilning 27-oktabr – 1-noyabr kunlari bolalarda antibiotiklarga turg'unlik masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazish maqsadida,

1. Quyidagilar:

“Bolalarda antibiotiklarga turg'unlik masalalari” mavzusida chet el mutaxassislari ishtirokida ilmiy-amaliy konferensiya dasturi 1-ilovaga;

Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy tibbiyot markazida o'tkaziladigan “Bolalarda antibiotiklarga turg'unlik masalalari” mavzusidagi xalqaro mutaxassislarning ishtirokida mahorat darsi qatnashchilari o'rinlari taqsimoti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari:

2-ilovadagi taqsimot asosida joriy yilning 27-oktabr – 1-noyabr kunlari o'tkaziladigan tadbirda hududiy Bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi shifokorlarining ishtiroki ta'minlansin;

xizmat safari bilan bog'liq sarf-harajatlar asosiy ish joyidan ta'minlanishi inobatga olinsin.

2. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (A.Abduqayumov):

mazkur tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratsin.

3. Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot kotibi (F.Sanayev):

tadbir tavsilotlarini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga etkazish choralar ko'rilsin.

4. Ushbu topshiriq xati ijrosining nazorati OvaBMQB boshlig'i U.Eraliyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir o'rinbosari



E.Basitxanova